

## SURXONDARYOLIK OLIMA AYOLLAR — ILM-FAN FIDOVYLARI

Boltayeva Gulnoza Raxmatullayevna

O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati “Yosh chegarachilar” harbiy-akademik litseyi bosh o‘qituvchisi, Termiz davlat universiteti ilmiy tадqiqotchisi

## ЖЕНЩИНЫ УЧЕНЫЕ СУРХАНДАРЬИ — ПОСВЯЩЕННИКИ НАУКИ

Boltayeva Gulnoza Rakhmatullaevna

Старший преподаватель Военно-академического лицея  
«Юные пограничники» Службы государственной  
безопасности Республики Узбекистан, научный сотрудник  
Термезского государственного университета

## WOMEN SCIENTISTS OF SURKHANDARYA — SCIENCE DEDICATORS

Boltayeva Gulnoza Rakhmatullaevna

Head teacher of the Military Academic Lyceum "Yosh chegarachilar" of the State Security Service of the Republic of Uzbekistan, Researcher of Termiz State University

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, 1999-yilning “Ayollar yili” deb e‘lon qilinishi birinchidan mo‘tabar zot - ayollarimizga nisbatan cheksiz hurmat-ehtirom va Surxon vohasida yetishib chiqqan olima ayollar haqida aniq manbalar asosida tahliliy ma‘lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar, ilm, ma‘rifat, ishlab chiqarish, madaniyat, ijtimoiy hayot.

**Аннотация:** В данной статье «Указ о мерах по поддержке деятельности Комитета женщин Узбекистана, объявляющий 1999 год «Годом женщин», в первую очередь нашим уважаемым женщинам. Аналитическая информация дана на основе конкретных источников о женщинах-учёных, выросшие в оазисе Сурхан.

**Ключевые слова:** женщины, наука, просвещение, производство, культура, общественная жизнь.

**Abstract:** In this article, "Decree on measures to support the activities of the Women's Committee of Uzbekistan, declaring 1999 as the "Year of Women", first of all to our honorable women Analytical information is given on the basis of specific sources about women scientists who grew up in the oasis of Surkhan.

**Keywords:** women, science, enlightenment, production, culture, social life.

## KIRISH (INTRODUCTION)

Mustaqillikka erishgandan keyingi o‘tgan yillard mobaynida O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma‘rifiy hayotida misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur jabhalarda olib borilayotgan islohatlarda, ayniqsa,

madaniy-ma‘rifiy va ilm-fan sohalarida erishilgan yutuqlarda O‘zbekistonlik olima ayollarning ham xizmatlari salmoqli ekanligini ko‘rsatib o‘tish o‘rinlidir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yildagi “O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari



[https://orcid.org/  
0009-0006-3250-9663](https://orcid.org/0009-0006-3250-9663)

[boltaevagulnoza70@gmail.  
com](mailto:boltaevagulnoza70@gmail.com)

to‘g‘risidagi farmoni, 1999-yilning “Ayollar yili” deb e’lon qilinishi, birinchidan mo‘tabar zotayollarimizga nisbatan cheksiz hurmat-ehtirom ramzi bo‘lsa, ikkinchidan, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy va ilm-fan sohalaridagi faoliyatlarida yangidan-yangi yutuqlarga erishishlariga ilhom baxsh etdi. Buni biz birgina Surxondaryolik olima ayollar, qolaversa Termiz davlat universitetida faoliyat yuritayotgan olima ayollar misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Xususan, hozirgi paytda Surxondaryolik olima ayollarni mamlakatimizning turli jabhalarida: oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida, ilmiy tekshirish institutlarida, madaniyat va san‘at muassasalarida, tibbiyot va ijtimoiy sohalarda, davlat boshqaruv organlarida, deputatlik korpuslarida hamda xorijiy mamlakatlarda samarali mehnat qilayotganini ko‘ramiz [1].

## **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD / (MATERIALS AND METHODS)**

Birgina Termiz davlat universitetida 164 nafar ayollar yosh avlod ta’lim-tarbiyasida ishtirok etayotgan bo‘lsa, shulardan 15 nafari fan nomzodlari, dotsentlar hisoblanib, 50 dan ortiq‘i ilmiy-tadqiqot ishlari ustida ishlashmoqda. 10 dan ortiq o‘qituvchi ayollar aspiranturani tugatib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilish arafasida turibdi. Termiz davlat universitetini bitirib shu yerda faoliyat boshlagan 15 dan ortiq olima ayollar Toshkent shahridagi Oliy o‘quv yurtlarida faoliyatini davom ettirishmoqda va ilmiy izlanishlar olib bormoqda[2].

Mana shunday fidoyi olima ayollarimizdan biri Arslanova Faina Islamovna 1974-yilda ayollar orasidan Surxondaryo viloyatida birinchi bo‘lib fan nomzodligi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi. Fan olamiga o‘zining “Ruscha obyektni aniqlovchi ergash gapning o‘zbek tilidagi muvofiqligi” deb nomlangan ilmiy ishi bilan yangiliklar olib kirdi.

Surxondaryolik ayollar ichida birinchi biologiya fanlari nomzodi unvonini olgan Rashida Muxammadjonovadir. Uning dissertatsiya mavzusi “Surxondaryoning asal-shirali o‘simpliklari va ulardan foydalanish” mavzusiga bag‘ishlangan. Ilmiy ishi juda qiziqarli, o‘rganilmagan jihatlari ko‘pligi bois, Rashida Muxammadjonova hozirga qadar kuzatish, tajriba ishlarini olib bormoqda.

Nelli Popova o‘zining “Armiyaga chaqirilishi yoshidagi o‘zbeklarda ruscha nutqni takomillashtirish” deb nomlangan dissertatsiyasini 1991-yili himoya qildi. U talabalarga rus tili fanini o‘rgatish jarayonida bor bilimini ular bilan baham ko‘rdi. Nelli Popova “Xalq maorifi a’lochisi”, 1994-yili dotsent unvoni berildi. Hozirgacha rus tili kafedrasida ishlab kelmoqda[3].

Gulobza Usanova 1989-yili “Metall bo‘lmagan jismlar radiatsiyasi jarayonining ba’zi mexanizmlari” mavzuida dissertatsiya yoqlab, fizika-matematika fanlari nomzodi bo‘ldi. Talabalarga fizika-matematika fanining eng chuqur qirralarini o‘rgatishda o‘z hissasini qo‘shmoqda.

Ramazonova Mayram fizika-matematika fanlari nomzodi.

Psixologiya faniga yangiliklar olib kirgan olima ayollarimizdan yana biri Mehri Norboshevaridir. 1993-yili “Xalq o‘yinlarining rivojlantiruvchi funksiyalarning psixologik tahlili” mavzusida ilmiy ish yoqlab, Surxondaryolik birinchi psixolog olima nomiga musharrif bo‘ldi.

Yana bir ziyoli olima ayol Muslima Bozorova u 1994-yilda “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida do’stlik va o‘rtoqlik hissini tarbiyalashda o‘zbek xalq ertaklaridan foydalanish” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqladi. Boshlang‘ich tarbiya muammolariga bag‘ishlangan ko‘pgina maqolalar muallifi. Ayni vaqtda talabalarga tinmay bilim berib kelyapti.

## **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

Ayol izzatlanayotgan, uning ayollik nomi qadrlanayotgan jamiyatda inson degan nomning qadri hamisha baland bo‘lib kelgan.

Surxondaryo viloyatida yashab ijod qilayotgan barcha olima ayollarimizga barcha imkoniyatlar yaratilgan. Nafaqat universitetimizda, bundan tashqari viloyatimizda tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, iqtisodiyot, ijtimoiy va boshqa sohalarda olima ayollarimizning fidoyiligini ko‘rishimiz mumkin. Mana shunday yuksak baholardan ilhomlanib ijod qilayotgan olima ayollarimizdan, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent Oysuluv Hamidova, 2000-yilda “Ingichka tolali paxta yetishtirish va qayta ishlash xarajatlarining hisobi va tahlili”, Surxondaryo viloyati korxonalarini misolida “080008, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit mutaxassisligi bo‘yicha” nomzodlik dissertatsiyasini

yoqlagan. Surxondaryo viloyatida yagona iqtisodchi olima. Hozirgi paytda Yangiariq qishloq xo‘jaligi kasb-hunar kolleji direktorligi vazifasida ishlab, timmay talabalarga bilim bermoqda.

O‘zbekistonda meloratsiya sug‘orma dehqonchilikda birinchi qaldirg‘och, qishloq xo‘jalik fanlari nomzodi Gulbahor Qurbonovadir.

“Rayonlashgan va istiqbolli o‘rta tolali “Oq qo‘rg‘on 2, Armug‘on, Surxondaryo 2” g‘o‘za navlarini ko‘chat qalinligi suv, o‘g‘it me’yorlarini tartibi” mavzusida dissertatsiyasini 2004-yilda muddatidan oldin yoqladi. Qishloq xo‘jaligi sohasiga yangi-yangi fikrlari bilan o‘z hissasini qo‘shmoqda ilmiy ishdan to‘xtagani yo‘q doktorlik dissertatsiyasi ustida ish olib borayapti[4].

Saida Zununova tibbiyot fanlari nomzodi - “Artrit revmatizmi kasalliklarini seravodorod suvi bilan davolash usullari” mavzusida ilmiy ish olib borgan. 2008-yilda dissertatsiyasini yoqladi va ilmiy ixtiro yaratdi. “Yurak ishemik kasalligi bilan og‘riyan bemorlarda nitratlarga bo‘lgan tolerantlik rivojlanishini oldini olish usuli” yosh olma hozirgi paytda fan bilan mashg‘ul “Yurak qon tomirlari tizimidagi kasalliklarni ratsional ravishda kurort va balneologik omillar bilan davolash hamda reabillashtirish” mavzusida Grant ustida ish olib borayapti, fan olamiga yangi-yangi ixtirolari bilan o‘z hissasini qo‘shmoqda[5].

Tarixchi olima Adolat Rahmonqulova doktorlik dissertatsiyasini himoya qilishi arafasida turgan bo‘lsa, Mirzayeva Muhayyo san‘atshunoslik nomzodi sifatida o‘zbek xalq cholg‘u musiqa asboblarini xorij mamlakatlariga tanitishda samarali mehnat qilib Germaniyada faoliyatini davom ettirmoqda. Yuqorida biz Surxondaryolik olma ayollarining ayrimlari ustida to‘xtalib o‘tdik xolos.

## NATIJALAR (RESULTS)

Fidoyi olima ayol kim, u qanday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak degan savol tug‘ilishi tabiiy.

Olima kishi ziylolarga xos odamiylik darajasiga etishgan bo‘lsa, boshqacha aytganda, uning ilm-fanga qo‘shgan hissasi xalqqa, jamiyat yoki ilm-fanning o‘ziga xizmat qila boshlasa, yon-

atrofiga shogirdlar va o‘rnibosarlar yig‘ilib, ularning samimiy obro‘-e’tiboriga sazovor bo‘lsa, bunday zot amaldagi qaysi ilmiy darajaga, unvonlarga yoki xizmat lavozimiga erishgan bo‘lishidan qat‘i nazar, “martabali shaxs” sifatida qadrlanishi, tabiiydir.

## XULOSA (CONCLUSION)

Ayollarning ilm-fan sohasidagi intilishlari va oiladagi imkoniyatlari masalasiga kelsak, bu holat, avvalo, uning o‘ziga, zakovati va dunyoqarashiga bog‘liq bo‘libgina qolmasdan, ko‘p jihatdan muayyan oila sharoitida shakllangan muhitga, o‘sha yerdagi o‘zaro munosabatlarga ham bog‘liq.

Bundan ko‘rinib turibdiki, olima ayollarimizning ilm-fan sohasida olib borayotgan ishlari respublikamiz taraqqiyotida muhim o‘rin egallab, jamiyatimiz gullab yashnashida o‘z hissasini qo‘shishi tabiiydir.

## FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Toshboyeva T.H. O‘zbek ayoli o‘tmishda va hozirgi kunda. — T.: Bilim. 1987. — B 18.
2. Ubaydullayeva R.A Xotin-qizlarning sotsial-iqtisodiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasi. — T.: Bilim. 1987. — 23 b.
3. Jo‘raeva S. Xotin qizlar jamoat birlashmalari va xayriya faoliyati. Toshkent; 2006-yil.
4. Razhabovich, P. T., & Narzullayevich, T. Z. (2019). A LOOK INTO THE HISTORY OF THE PREPARATION OF LOCAL PROFESSIONALS IN THE INDUSTRY. *O‘tmishga nazar jurnali*, 26(2).
5. Tursunov, S., Pardayev, T., & Qurbonov A, T. N. (2006). O‘zbekiston tarixi va madaniyati: Surxondaryo etnografiyasi. *Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti*, 275.
6. Tursunov, S., Qobilov, E., Pardayev, T., va Murtazoyev, B. (2004). History of Surkhandarya. T.: East.